



«TASDIQLAYMAN»
“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Boshqaruv raisi o'rinbosari v.b.:
O.Voxidov

«3» iyun 2026 y.
№ 401

**Malakali diktorglar ovoz bergan holda maxsus studiyada audioroliklarni tayyorlash
texnik topshiriq**

	Nomi	Talab
1.	Buyurtmachi	«Biznesni Rivojlantirish Banki» ATB
2.	Bajariladigan ish yoki ko'rsatiladigan xizmat turi	Bank sohasiga oid matnlarni professional darajada ovozlashtirish orqali sun'iy intellekt modellari uchun trening (o'qitish) ma'lumotlar bazasini shakllantirish uchun diktorg.
3.	Buyurtmachi manzili	Toshkent shahar, Alisher Navoiy ko'chasi 18 A-uy, 100011
4.	Moliyalashtirish manbai	Bank o'z mablag'lari
5.	Xizmatning batafsil tarkibi	<p>1. Diktorglarga qo'yiladigan talablar:</p> <ul style="list-style-type: none">- Ayol kishi- o'zbek tilida ravon, aniq va adabiy talaffuzda nutq ijro eta olish;- buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan matnlarni grammatik, fonetik va orfoepik me'yorlarga to'liq rioya qilgan holda o'qib bera olish;- buyurtmachi taqdim etgan matnlarni o'zbek tilida mukammal talaffuz qilish, tinish belgilariga mos pauza va intonatsiyani saqlash qobiliyatiga ega bo'lish;- matn mazmunidan kelib chiqib turli emotsional ohanglarda (ijobiy, neytral, negative tonlarda) ovoz bera olish. <p>2. Diktorg quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi lozim:</p> <ul style="list-style-type: none">- sof va tushunarli diksiya;- barqaror ovoz tembri;- ortiqcha sheva yoki dialekt ta'sirisiz talaffuz;- shovqinsiz va sifatli audio yozuvni ta'minlay olish;- matnni tabiiy intonatsiya va ritmda o'qish qobiliyati.

		<p>3. Diktor tomonidan yozib beriladigan har bir audiorolik davomiyligi: 3 soniyadan 25 soniyagacha.</p> <p>4. Audioroliklarning umumiy hajmi kamida 50 soatni tashkil etadi.</p> <p>5. Har bir audiorolik uchun diktorlarni tanlash yetkazib beruvchi tomonidan taqdim etilgan nomzodlar va demo yozuvlar asosida buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi.</p> <p>6. Audioyozuvlarda quyidagi holatlarga yo‘l qo‘yilmaydi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - fon shovqini; - aks-sado; - noto‘g‘ri talaffuz; - ortiqcha nafas yoki tashqi tovushlar; - matndan chetga chiqish yoki improvizatsiya qilish. <p>7. Yetkazib beruvchi audioyozuvlarning texnik sifati va bir xil standartda tayyorlanishini ta‘minlashi lozim.</p> <p>8. Diktor ovozi avtomatlashtirilgan kontakt-markaz tizimlarida foydalanish uchun sun‘iy intellekt asosidagi ovoz modeli (ovoz kloni)ni yaratish va o‘qitishga yaroqli bo‘lishi lozim. Shu munosabat bilan diktor barcha audioyozuvlar davomida ovoz tembri, intonatsiyasi, nutq sur‘ati va talaffuzining barqarorligini ta‘minlashi shart. Diktor ovozida nutq nuqsonlari, yaqqol sheva yoki dialekt ta‘siri, kuchli aksent hamda ovoz modelining sifatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan boshqa xususiyatlar bo‘lmasligi lozim. Diktor yozib olingan audio materiallardan Buyurtmachi ehtiyojlari uchun sun‘iy intellekt asosidagi ovoz modeli (ovoz kloni)ni yaratish, o‘qitish, takomillashtirish va foydalanishga rozilik bildirishi kerak.</p>
6.	Yetkazib berish shartlari	Shartnoma imzolangan kundan boshlab 21 kalendar kun ichida.
7.	To‘lov shartlari	Shartnoma imzolangan keyin bajarilgan ishlar umumiy qiymatining 100% miqdoridagi ulushi to‘liq bajarilgan ishlar va xizmatlar to‘g‘risidagi hisob-faktura va xizmatni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi Buyurtmachi va Bajaruvchi tomonidan imzolangan kundan boshlab 10 bank kuni ichida to‘lab beriladi.
8.	Shartnomani amal qilish muddati	Shartnoma shartlari to‘liq bajargunga qadar
9.	Bajarilgan ish va xizmatlarni qabul qilish	Ijrochi tomonidan bajarilgan ish va xizmatlar topshirish-qabul qilish dalolatnomalari taqdim etilib, ikki tomonlama imzolanganidan paytdan bajarilgan hisoblanadi

kelishuvchilar: U.Alimov, Z.Orifkhoyayev

<https://hujjat.br.b.uz/?pin=aC99oJ73&id=a00d758e-3f66-457d-90df-e352cdd00a13>

